

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
90- sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	

TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Absamatov Anvar Ergashovich

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

E-mail: e.absamatov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga doimiy moslashish, kreditlash faoliyati uchun yangi strategiya va vositalarni ishlab chiqish, banklarning kredit risklarini samarali boshqarish, yetarli kapital, likvidlik hamda aktivlar va passivlarni boshqarish kabi bir qator omillarga bog'liqligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, bugungi kunda tijorat banklarining kreditlash faoliyatini ta'minlashning dolzarbligi shubhasizdir, chunki mamlakat butun moliya tizimining muvaffaqiyatli ishlashi unga bog'liq. Banklarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni boshqarishning istiqboldagi mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: bank faoliyati, banklarning kreditlash faoliyati, moliyaviy qarorlar, moliyaviy aktivlar, debitorlik, kreditorlik, nomoliyaviy aktivlar, real aktivlar, pul mablag'lari, bankning moliyaviy strategiyasi, bankning moliyaviy xavfsizligi, strategik boshqaruv.

Abstract: This article examines the dependence of commercial banks in the process of economic transformation on several factors, such as the development of credit activities, constant adaptation to socio-economic conditions, the development of new strategies and tools for credit activities, effective management of banks' credit risks, sufficient capital, liquidity management, and the management of assets and liabilities. Furthermore, the relevance of ensuring the credit activities of commercial banks is undeniable today, as the successful functioning of the entire financial system of the country depends on existing problems in the prospects of financial decision-making and risk management in banks, as well as the author's proposed approaches and solutions for their elimination.

Keywords: banking, bank lending, financial decisions, financial assets, accounts receivable, lending, non-financial assets, real assets, cash, financial strategy of the bank, financial security of the bank, strategic management.

Аннотация: В данной статье рассматривается зависимость коммерческих банков в процессе трансформации экономики от нескольких факторов, таких как развитие кредитной деятельности, постоянная адаптация к социально-экономическим условиям, разработка новых стратегий и инструментов кредитной деятельности, эффективное управление кредитными рисками банков, достаточный капитал, управление ликвидностью, активами и пассивами. Также сегодня актуальность обеспечения кредитной деятельности коммерческих банков неоспорима, поскольку успешное функционирование всей финансовой системы страны зависит от существующих проблем в перспективах принятия финансовых решений и управления рисками в банках, а также от авторских подходов и предложений, представленных для их устранения.

Ключевые слова: банковская деятельность, кредитная деятельность банков, финансовые решения, финансовые активы, дебиторская задолженность, кредитование, нефинансовые активы, реальные активы, денежные средства, финансовая стратегия банка, финансовая безопасность банка, стратегическое управление.

KIRISH

Shuningdek, tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning muhim jihati – berilgan kredit portfeli va ularning sifati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda bank uchun xavflarni minimallashtirishdan iborat. Bu esa bankning moliyaviy barqarorligini saqlashga va omonatchilar manfaatlarini ishonchli himoya qilishga yordam beradi.

Iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida tijorat banklari kreditlash faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, ular kichik va o'rta biznes hamda jismoniy shaxslarga kredit berishda faollashmoqda. Bu iqtisodiy o'sish va tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, banklar o'zlarining kredit mahsulotlari va xizmatlarini takomillashtirishni boshlaydilar, bu esa ularni mijozlar uchun yanada qulay va jozibador qiladi. Bunga yangi kredit dasturlarini ishlab chiqish, foiz stavkalarini pasaytirish yoki kreditni qayta ishlash tartib-qoidalarini soddalashtirish kiradi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari o'zlarining kredit faoliyatini faol rivojlantirmoqdalar, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may kuni qabul qilingan "2020–2025-yillarga mo'ljallangan



O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-sonli Farmonida¹, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili natijasida quyidagi muammolar mavjudligi qayd etilgan: davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolar. Xususan, moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish hamda kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mu'tadil o'sishini ta'minlash, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejmlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari o'zlarining kreditlash faoliyatini oshirish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan va kredit portfeli tushunchasi uning mohiyatiga berilgan ta'riflarda ifodalangan. Masalan, amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barltan va Diana Mak Noton kredit portfelini "bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi" deb ta'riflashadi [2].

Shuningdek, N. Sokolinskaya kredit portfelini "qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iborat" deb belgilaydi [3]. Ushbu ta'rifda asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bo'lsa-da, bu holat kredit portfelining mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit portfelining sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin.

M. Malede kreditlar bank aktivlari portfelining eng yirik elementi hisoblanib, ayniqsa, ular banklar uchun asosiy daromad manbai ekanligini ta'kidlaydi [4]. Shu sababli, tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ularning kreditlash xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tushunish muhimdir. Chunki kreditlar tijorat banklari aktivlari portfelining taxminan 60–65 foizini tashkil qiladi.

Xorijiy iqtisodchi olim F.O. Olokoyo ta'kidlaganidek, "tijorat banklari iqtisodiyotning umumiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi va doimo iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan, bu vaqt o'tishi bilan xususiy sektorni kreditlashning jadal o'sishidan dalolat beradi" [5]. Bank kreditlari ko'rinishidagi mablag'larning mavjudligi ishlab chiqarish sanoati, qurilish, ko'chmas mulkni rivojlantirish, chakana savdo va iqtisodiyotning boshqa sohalariga investitsiyalarni kengaytirish hamda samarali jalb qilishga yordam bergan. Banklarning tijorat firmalariga kredit berish qobiliyati esa biznesning samaradorligi, rentabelligi va kelajakdagi o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, M. Maloba fikricha, banklarning kreditlash sohasidagi xatti-harakatlarini tushunish nihoyatda muhim, chunki bank sektori iqtisodiy o'sish va taraqqiyotni rag'batlantirishda asosiy rol o'ynaydi [6]. Yana bir xorijlik iqtisodchi olim T.T. Cheong ta'kidlaydiki, "iqtisodiyotni transformatsiyalash va globallashtirishning so'nggi tendensiyalarini hisobga olgan holda, banklar raqobatbardosh bo'lib qolish uchun yaxshi tayyorgarlik ko'rishlari va yanada samarali harakat qilishlari kerak. Bundan tashqari, hukumat banklarning kreditlash xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi omillarni yanada chuqurroq tushunishi kerak" [7].

M. Amidu fikricha, "banklarning moliyaviy hisobotlarida ishlayotgan kreditlarning yuqori ulushi ularning kredit berishiga to'sqinlik qiladi va natijada banklar tomonidan kreditlash hajmi kamayadi" [8].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, ayrim jihatlarni munozarali deb hisoblash mumkin. Xususan, ishlayotgan kreditlar tijorat banklarining kredit xatti-harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ular muhim omil emasligi isbotlangan. Shuningdek, muammoli kreditlarning mavjudligi tijorat banklari tomonidan mijozlarning kredit arizalarini baholashda qo'llaniladigan mezonlardan biridir. Mijozning depoziti banklar uchun muhim moliyaviy resurs manbai bo'lib, aholiga kreditlar berish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini tashkil qiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan biri I. Qulliyev chakana kreditlar samaradorligi bo'yicha quyidagi xulosani ta'kidlab o'tgan: "Banklarning kreditlash samaradorligini baholash — bu kreditlar sifatini oshirish, yuqori daromad olishni ta'minlash va kreditlashni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida kredit portfelini tizimli tahlil qilish jarayonidir" [9].

Tadqiqotchi A.B. Kalandarovning fikricha, "tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish banklarda kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi" [10].

Muallif fikriga qisman qo'shilgan holda aytish mumkinki, muammoli kreditlarni kamaytirish orqali bankning umumiy kredit portfelini boshqarish va natijada bank samaradorligiga erishish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, ulardagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilindi. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash va statistik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda so'nggi yillarda yuqori kreditlash jarayonining kuzatilishi natijasida, jami kreditlarning YAIMga nisbati yuqori darajada shakllandi. Aholiga taqdim etilayotgan kreditlar qoldig'ining yillik hisobda tez sur'atlarda o'sishi moliya tizimida kredit tavakkalchiliklari ko'payishiga, shuningdek, nisbatan kam daromadli qarzdorlarning kreditlarni qaytara olmaslik xavfining oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Aholi farovonligini oshirish, tegishli tartibda xizmat ko'rsatish va mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda moliya muassasalarining o'rni muhim.

O'zbekistondagi eng yirik banklardan biri — "O'zmilliybank" AJ mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarda samarali ishtirok etib, katta investitsiyaviy va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirmoqda. 2023-yilda bank aktivlarini va mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ishtirokini oshirish, mustahkam resurs bazasini shakllantirish va undan oqilona foydalanish, shuningdek, bank tavakkalchiliklarini samarali boshqarish siyosatini amalga oshirish ishlarini davom ettirdi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bank aktivlari 118 trln so'mdan oshdi, kredit portfeli 95,3 trln so'mni tashkil etdi, umumiy kapitali esa 17,7 trln so'mga yetdi. Bankning korporativ segmentida 1500 dan ortiq, kichik va o'rta biznes segmentida esa 80 mingdan ortiq mijozlar mavjud bo'lib, ularning aylanishi mos ravishda 266 trln so'm va 32 trln so'mni tashkil etadi [11].

Bank butun faoliyati davomida investitsiyaviy dasturlarni amalga oshirish va ko'plab yirik hamda strategik muhim infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Ularning aksariyati yoqilg'i-energetika kompleksi, to'qimachilik sanoati, transport va aloqa, kommunal xo'jalik kabi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda.

O'tgan 2023-yilda iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari qoldig'i 23,3 foizga ko'paygan bo'lsa, shundan aholi kreditlari hajmi 47 foizga oshib, asosiy drayverlardan biri bo'lgan (2.2.8-rasm). Aholi kreditlarining o'sishi, asosan, aholining ipoteka, mikroqarz va avtokreditlarga bo'lgan yuqori talabi bilan izohlanadi.

Xususan, 2023-yilda aholiga ajratilgan jami 100 trln so'mlik kreditlarning 36,5 foizini avtokreditlar, 28,4 foizini mikroqarzlarni va 16,8 foizini ipoteka kreditlari tashkil etdi. Kreditlarga bo'lgan talabning yuqori shakllanishi va tashqi moliyaviy sharoitlarning qat'iyligi fonida ichki moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning ortishi muddatli depozitlar foizining o'sishiga sabab bo'ldi.

Xususan, jismoniy shaxslar muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan nominal foiz stavkasi dekabr oyida 21,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, aholining inflyatsion kutilmalarini inobatga olgan holda hisoblangan real foiz stavkasi 7 foiz doirasida shakllandi. Muddatli depozitlar bo'yicha shakllangan yuqori nominal va real foiz stavkalari depozitlar hajmining yuqori o'sishiga xizmat qildi.

Xususan, 2023-yilda aholi muddatli depozitlari 43,7 foizga, shu jumladan milliy valutatdagi qismi 1,5 barobarga o'sdi.

Umuman olganda, 2024-yilda inflyatsiyaning nisbatan barqaror shakllanishi kutilmoqda. Bunda tashqi inflyatsion bosimlar, tartibga solinadigan narxlarning ehtimoliy oshirilishi, soliq va boj to'lovlaridagi o'zgarishlar asosiy omillardan bo'lishi mumkin.

Bunday vaziyatda, Markaziy bank inflyatsiyaning 2025-yilda 5 foizlik target darajasigacha pasaytirish maqsadida joriy nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab qoladi. Natijada, ijobiy real foiz stavkalari depozitlarda yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlasa, chakana kreditlar bo'yicha yuqori talabning saqlanib qolishi hisobiga kreditlar o'sishining yillik 18–20 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Biroq kreditlash hajmlari o'sishi, asosan, chakana kreditlarga to'g'ri kelib, yuqori fiskal rag'batlantirishlar bilan bir qatorda joriy iste'mol talabini qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda. Tizimli xatarlarni oldini olish maqsadida ayrim turdagi chakana kreditlarning yuqori o'sishini jilovlashga qaratilgan makroprudensial choralar natijasida aholiga ajratilgan kreditlarning o'sishi sekinlashayotgani kuzatilayotgan bo'lsa-da, ularning o'sish sur'atlari yuqorilgicha qolmoqda (1-jadval).

**1-jadval:** Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd so'mda)¹

Sana	Aktivlar			Kreditlar		
	Jami	Shundan:		Jami	Shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
1	2	3	4	5	6	7
01.01.2022-y.	444 922,5	362 421,9	82 500,6	326 385,6	280 073,6	46 311,9
01.01.2023-y.	556 746,3	435 135,6	121 610,7	390 048,9	324 680,8	65 368,2
01.01.2024-y.	652 157,1	441 777,2	210 379,9	471 405,5	333 298,1	138 107,4
2024-yilning 2022-yilga nisbatan farqi (+/-)	207 234,60	79 355,30	127 879,30	145 019,90	53 224,50	91 795,50

Yuqorida keltirib o'tilgan 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining jami aktivlari 2024-yil boshiga ko'ra 652 157,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 207 234,6 mlrd so'mga oshgan. Shundan davlat ulushi mavjud banklarning aktivlari 79 355,3 mlrd so'mga, boshqa banklar aktivlari esa 127 879,3 mlrd so'mga ko'paygani tijorat banklari faoliyatida aktiv operatsiyalarning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar 2024-yil boshiga ko'ra 471 405,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 145 019,9 mlrd so'mga oshgan. Shundan davlat ulushi mavjud banklarning kreditlari 53 224,5 mlrd so'mga, boshqa banklar kreditlari esa 91 795,5 mlrd so'mga ko'paygan. Tijorat banklarining jami kreditlari umumiy aktivlarda 69,9 foiz ulushga ega ekanligi banklar faoliyatida kreditlash operatsiyalarining yuqori o'rinda ekanligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday holat tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlarning ortishiga ham sabab bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston tijorat banklari 2024-yil 1-yarim yillikni roppa-rosa 20,0 trln so'm muammoli kreditlar bilan yakunlagan. Bu yil boshiga (16,6 trln so'm) nisbatan 3,4 trln so'mga yoki 20,3 foizga ko'pdir. Muammoli kreditlar ulushi yil boshidagi 3,5 foizdan 4,0 foizga yetgan. Banklarning kredit portfeli esa yil boshiga nisbatan 22,5 trln so'mdan ko'proqqa (4 foizga) oshgan va qariyb 494,0 trln so'mga yetgan.

Davlat banklarining kredit portfeli jami 12,2 trln so'mga (3,7 foizga), muammoli kreditlari miqdori esa 1,8 trln so'mga ko'paygan. Kredit portfeli miqdori faqat Asakabank (-2,0 trln so'm) va Biznesni rivojlantirish bankida (-729 mlrd so'm) kamaygan. Muammoli kreditlar miqdoran Xalq banki (-264 mlrd so'm), O'zmilliybank (-171 mlrd so'm), Agrobank (-38 mlrd so'm), Asakabank (-3 mlrd so'm) va Poytaxt bankda (-1 mlrd so'm) kamaygan.

Davlat nazoratida bo'lmagan banklarning jami kredit portfeli 10,3 trln so'mga (7,5 foizga) o'sgan, portfeldagi muammoli kreditlar miqdori esa 1,5 trln so'mga ortgan. Natijada mazkur banklarning muammoli kreditlari miqdori 4,9 trln so'mga, ularning portfeldagi ulushi esa 3,3 foizga yetgan.

Kredit portfeli Kapital bank (2,7 trln so'm), Hamkor bank (2,1 trln so'm), Anorbank (1,8 trln so'm), Ipak Yo'li bankida (1,3 trln so'm) nisbatan jadalroq o'sgan. Muammoli kreditlar miqdoran Oktobank (-212 mlrd so'm), Ipak Yo'li banki (-72 mlrd so'm), Universalbank (-25 mlrd so'm), OFB (-15 mlrd so'm), Ziraat bank (-7 mlrd so'm), Trust bankda (-5 mlrd so'm) kamaygan [12].

Bunday holatda muammoli kreditlarni kamaytirishning quyidagi bir necha yo'llarini qo'llash maqsadga muvofiq:

Birinchidan, davlat byudjetini ishlab chiqish va unga rioya qilish keraksiz xarajatlar va qarzlardan qochishga yordam beradi.

Ikkinchidan, kreditlar va qarzlarni muntazam ravishda to'lash yo'llarini takomillashtirish muammoli kreditlar to'planishining oldini olishga ko'maklashadi.

Uchinchidan, bank mijozida moliyaviy qiyinchiliklar bo'lsa, to'lovlarni qayta ko'rib chiqish yoki kechiktirish kabi muammoning mumkin bo'lgan yechimlarini muhokama qilish uchun tijorat banklariga murojaat qilishi lozim.

To'rtinchidan, kelajakdagi moliyaviy muammolarni oldini olish uchun moliyaviy rejalashtirish, qarzlarni boshqarish va investitsiya qilish asoslarini ishlab chiqish zarur.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, tijorat banklarining kreditlash faoliyati orqali korxonalarni moliyalashtirish va biznesni kengaytirishga ko'maklashiladi, bu esa ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Keng miqyosdagi kreditlar iqtisodiyotga sarmoyalarni jalb qilishga imkon yaratadi, bu esa yalpi ichki mahsulot o'sishi va yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi. Kredit sektori rivoji moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlab, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kreditlash mexanizmi aholiga uy-joy xarid qilish, ta'lim olish yoki kichik biznesni yo'lga qo'yish kabi maqsadlar uchun zarur mablag'larni olish imkonini beradi, bu esa ularning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kreditlar yordamida aholi mavjud moliyaviy muammolarni bartaraf etishi yoki kelajakdagi rejalarini amalga oshirishi mumkin. Moliya tizimining rivojlanishi esa aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib, barqaror va ishonchli bank tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may kuni qabul qilingan "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Diana Mak Noton. Bankovskie uchrezhdeniya v razvivayushchikhsya stranakh. – IER MBRR. – Vashington D.S., 2001. – S. 75.
3. Sokolinskaya N. E. Otsenka i analiz sostoyaniya aktivov kreditnoy organizatsii // Bankovskoe delo. – 2010. – № 3. – S. 56–61.
4. Malede, M. (2014). Determinants of Commercial Banks' Lending: Evidence from Ethiopian Commercial Banks. *European Journal of Business and Management*, 6(20), 109–117.
5. Olokoyo, F. O. (2011). Determinants of Commercial Banks' Lending Behavior in Nigeria. *International Journal of Financial Research*, 2(2), 61–72.
6. Maloba, M. (2018). Determinants of Agri-Lending among Financial Institutions in Kenya. Thesis, Master of Commerce in Development Finance, University of Cape Town.
7. Cheong, T. T. (2000). Commercial Banks' Lending and Economic Growth in Malaysia: An Empirical Study. *Borneo Review: Journal of the Institute for Development Studies (Sabah)*, 11(1), 60–71.
8. Amidu, M. (2014). What Influences Banks' Lending in Sub-Saharan Africa? *Journal of Emerging Market Finance*, 13(1), 1–42.
9. Quliyev I. Ya. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining chakana kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashni takomillashtirish masalalari // *Xalqaro moliya va hisob elektron jurnali*. – № 2. – 2023.
10. Kalandarov A. B. Banklardagi muammoli kreditlarni undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*. – № 5, sentabr-oktyabr, 2020-yil.
11. Bankers.uz — "Tijorat banklarining kredit portfeli va muammoli kreditlar holati bo'yicha tahliliy ma'lumot" // <https://bankers.uz/news/1345>
12. Markaziy bankning rasmiy statistik portali — "Bank statistikasi" // <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1785919/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100